

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLAR” QISSASINI INTERFAOL USULLARDA O‘QITISH YO‘LLARI (5-sinf darsligi misolida)

Safarova Malika Zarif qizi

*Oriental universiteti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi
(Yosh tadqiqotchilar to‘garagi a‘zosi)*

Ilmiy rahbari: Isokulov Abdullo Oblukul o‘g‘li

Tillar-1 kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlar” qissasini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ijodkor asarlarida anglashilgan fikrlardan kelib chiqqan holda metod tanlash va qo‘llash masalalari yoritilgan bo‘lib, qo‘llanilgan metodlar orqali o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishi oshirish, asar qahramonlarini eslab qolish hamda tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish, o‘quvchilarning asar qahramonlari hayotiga befarq bo‘lmashligini kabi xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Milliy dastur”, “muallif pozitsiyasi”, “Sehrni zanjir” metodi, “Muloqot” texnologiyasi.

O‘tkir Hoshimov o‘z hikoyalarida hayotning eng oddiy, ammo eng chuqur ma’noga ega jihatlarini aks ettiradi. Uning asarlarida oddiy odamlar: mehribon onalar, o‘yinqaroq bolalar, oddiy va samimiy o‘qituvchilar kabi qahramonlar asarlarida markaziy o‘rin tutadi. Masalan, “Dunyoning ishlari” qissasida onalik va mehr-oqibatning buyukligi, insonning ichki dunyosi, sabr va vijdon masalalari tahlil qilinadi. Uning asarlarini nafaqat kattalar, balki o‘quvchilar uchun ham tarbiya vazifasini o‘taydi. Ayniqsa, umumta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilarida O‘tkir Hoshimov hikoyalarini o‘qitishda nafaqat ularning axloqiy tarbiyasi, balki insonparvarlik, mehr-muhabbat va vatanga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida “Uzluksiz adabiy ta’lim konsepsiyasi”da quyidagicha ta’kidlanadi: “Ayni vaqtda o‘smirga ezgu ma’naviyat fazilatlari go‘zal insoniy amallari bevosita ko‘rsatilsa va tarbiyalanuvchiga majburan tiqishtirilmay, ruhiyatiga tabiiy ravishda, zo‘rliksiz singdirilsa, bola ma’naviyatining ajralmas sifatiga aylanadi. O‘zaro muomala, munosabat deb atalmish qiyin mexanizmning amalga oshirilishi o‘sha munosabatlarning ijobiy yoki salbiyligiga bog‘liq”, – deb ta’kidlanadi [1.10].

Bu yoshdagi o‘quvchilarda hikoyani o‘rganishdan asosiy maqsad, faqat voqeani bilish yoki qahramonlarni tanish emas, balki inson hayoti, mehr-e’tiqod va sabr-toqat kabi ma’naviy qadriyatlarni ham anglashdir. Shuning uchun ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda “interfaol” usullardan foydalanish o‘rinli bo‘ladi.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi [4.140]

Dalil sifatida yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda 5-sinf darsligi misolida ko'rib chiqamiz. Umumta'lim maktablarida 5-sinf uchun mo'ljallangan dastur va darsligida O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini o'rganish quyidagicha ifoda etilgan. 5-sinf uchun mo'ljallangan dasturda:

1. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi. Dunyoning ishlari qissasi, "Alla", "Gilam paypoq" hikoyalari (1 soat)
2. "Iltijo", "Qarz" hikoyalarini o'qitish, tahlil qilish (1 soat)
3. "Oq marmar "Qora marmar" hikoyasi. Hikoyalar tahlili (1 soat)
4. Nazorat ishi. Taassurot yozish: "Ona buyuk inson", "Mening onam hammadan yaxshi" [3.03]. Dasturdan kelib chiqib qaralganda, ijodkor hayoti va ijodi, Dunyoning ishlari qissasi hikoyalarini o'qitish, hikoyalar asosida nazorat ishi uchun jami 4 soat vaqt ajratilgan.

Asarlarning tahlilini o'quvchining tajribasiga uning hissiyot tuyg'usiga yaqinlashtirish lozim. Dars jarayonidagi epizodlarni muhokama qilish, qahramonlarning xatti-harakatiga baho berish, yozuvchi fikrlarini zamonaviy hayot bilan bog'lash, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va badiiy tafakkurni rivojlantiradi. Bunda biz "Sehrli zanjir metodi" dan foydalanamiz. Bu metod ta'lim jarayonida, ayniqsa adabiyot darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin fikrlashga undash va o'rganilayotgan mavzuni mustahkamlash uchun qo'llaniladigan interfaol o'qitish usullaridan biridir. Bu metodda o'quvchilar bir-biriga "Zanjir" shaklida ulanib, ketma-ket fikr bildiradilar. Har bir o'quvchi oldingi ishtirokchining fikrini davom ettiradi yoki unga o'z fikrini qo'shadi. Shu tariqa barcha o'quvchilar o'zaro fikr almashib bir butunlik yoki xulosa hosil qiladilar.

Ushbu metodning maqsadi:

1. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.
2. Ularni ijodiy fikrlashga undash.
3. Asar mazmunini ketma-ketlikda tahlil qilish.
4. Jamoada ishlash, bir-birini tinglash madaniyatini shakllantiradi.

Masalan: 5-sinf uchun mo‘ljalangan darslikdagi “Dunyoning ishlar” qissasi asosida qo‘llab ko‘ramiz:

1. O‘qituvchi hikoya mazmuniga oid savol beradi. Masalan: Bu hikoyada muallif hayotining qaysi haqiqatlarini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan?”

2. Birinchi o‘quvchi javob beradi, masalan: “Muallif hayotda har bir insonning qadri borligini aytmoqchi.

3. Ikkinchi o‘quvchi uning fikrini davom ettiradi. “Ha ayniqsa, an’anani hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi”.

4. Keyingi o‘quvchilar ham shu zanjirni davom ettiradilar.

5. Oxirida o‘qituvchi umumiy xulosa qiladi.

Metodning afzalliklari: Har bir o‘quvchi darsda faol ishtirok etadi. Fikrlar zanjiri asar tahlilini jonlantiradi. O‘quvchilar o‘zaro bir-birini to‘ldirib, jamoaviy tahlilga erishadilar: Mavzu mustahkam bo‘lib esda qoladi.

“Muloqot” texnologiyasi - ushbu texnologiya talaba yoki o‘quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Bu metod o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib o‘tkaziladi. Mana shunday metodlarni 5-sinflar uchun qo‘llab darsni yanada samaradorligini oshirishimiz mumkin. O‘quvchilarga turli xil mana shunday metodlardan foydalanib qiziqarli dars o‘tilsa o‘quvchilarni adabiyotga bo‘lgan mehri yanada yuksaladi.

Umuman olganda O‘tkir Hoshimov hikoyalaridagi voqea qahramonlari o‘quvchini yodida tez fursatlarda esda qolishi uchun turli interfaol metodlar qo‘llaniladi. Bu metodlarni qo‘llash orqali o‘qitish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini takomillashtirib beradi. Biz o‘z-o‘zidan shuni aytishimiz kerakki, turli xil metodlar barcha o‘quvchilarga voqealarni eslab qolishida birdek manfaatli bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
2. Uzluksiz adabiy ta‘lim konsepsiyasi - T.: O‘zbekiston PFITI, 2017-yil. 10-B.
3. Ahmedov S. Qosimov B. Qo‘chqorov R. Rizayev SH. Adabiyot (5-sinf uchun darslik) “Sharq” Nashriyot-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyoti. Toshkent – 2020.
4. Bozarov A. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash, yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, in-academy.uz/index.php/yo
5. www. literature.uz